

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RASULOV SHUXRAT XO‘JAQULOVICH

**TOMAT MAHSULOTINI PAST HARORATDA QURITISH
JARAYONI VA APPARATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Rasulov Shuxrat Xo‘jaqulovich

Tomat mahsulotini past haroratda quritish jarayoni va apparatini takomillashtirish..... 3

Расулов Шухрат Хужакулович

Совершенствование процесса и аппарата сушки томатных продуктов при низких температурах..... 21

Rasulov Shukhrat Xujakulovich

Improving the process and apparatus for drying tomato products at low temperatures..... 40

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RASULOV SHUXRAT XO‘JAQULOVICH

**TOMAT MAHSULOTINI PAST HARORATDA QURITISH
JARAYONI VA APPARATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.16 – Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PHD/T3040 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.bmti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Xayrullo Fayziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nurmuxamedov Xabibulla Sagdullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Safarov Jasur Esirgapovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 23 may soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84, faks: (99865)223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (350 raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 24-martdagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi).



S.F. Fozilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

A.T. Oltiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

I.B. Isabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaning annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Dunyoda qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan meva va sabzavotlardan yuqori sifatli quritilgan tayyor mahsulotlar olish va qayta ishlashga qaratilgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jadal rivojlanib bormoqda. Bu borada turli xil navli tomat mevasini ochiq maydonlarda va issiqxonalarda yetishtirishni tizimli tashkil etish, ushbu tomat mevalarini sifatli quritishga mo‘ljallangan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda tomat mevasini qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, tomat mevasini quritishga mo‘ljallangan uskunalarni modernizatsiyalash, quritish qurilmalarini takomillashtirish orqali energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan yangi texnika va texnologiyalarni yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga ko‘ra ishlab chiqarishning ko‘pgina tarmoqlarida qo‘llanilayotgan texnologiyalarning energiya tejamkorligini oshirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, qayta ishlashda zamonaviy usullarni qo‘llash orqali tayyor mahsulotlarning saqlanish muddati va biologik qiymatini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda meva va sabzavotlarning turli xil navlarini yetishtirishda issiqxonalarni barpo etish, sifatli eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish”¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko‘ra tomat mevasining dastlabki tabiiy rangi saqlangan, yuqori elastiklik xossaga ega bo‘lgan strukturani taminlashga yo‘naltirilgan, past haroratli nur energiyasining maqbul to‘lqin uzunliklari diapazonida ishlov berish va uzluksiz quritish jarayoni va qurilmasining energiya tejamkor mexanizmini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-dekabrda PQ-4549 – son “Meva-sabzavotchilik va urug‘chilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi, Farmonlari, Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V- ”Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilari tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘ta yuqori chastotali maydon ta’sirida, infraqizil nur maydonida, chuqur vakuum ostida sublimatsiyali quritish qurilmalari hamda texnologik jarayonlarning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha xorij olimlaridan: Shyam S.Sablani, Angel Calin-Sanchez, Marina Cano-Lamadrid, Adam-Figiel, S.G.Ilyasov, Ye.I.Timoshkin, A.V.Titkova, A.S.Ginzburg, A.V.Likov, M.A.Grishin, Yu.G.Semenov, B.I.Leonchik, V.V.Kafarov, I.A.Rogov, V.A.Panfilov, G.K.Filolenko, B.S.Sajin, P.G.Romankov va boshqalar. Respublikamiz olimlaridan N.R.Yusupbekov, Z.S.Salimov, Dj.N.Muhitdinov, A.A.Artikov, X.S.Nurmuxamedov, O.F.Safarov, A.X.Mamatkulov, K.O.Dodayev, R.A.Hayitov, J.E.Safarov, X.F.Djurayev va boshqa olimlar izlanishlar olib borishgan.

Ushbu olimlar tomonidan meva va sabzavotlarni quritish jarayonining energiya va resurstejamkor usullari taklif etilgan. Shuningdek, quritish jarayonining kinetik qonuniyalarini o‘rganish bo‘yicha eksperimental va nazariy tadqiqotlar amalga oshirilib, samarali quritish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ammo, meva va sabzavotlarni quritish uchun noananaviy energiya manbalarining maqbul to‘lqin uzunliklari diapazonida past haroratli quritish jarayonini tashkil etish, fazalar aro moddaalmashinuv jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish masalalari bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot rejasining ITD - 9 “Qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanib, meva, sabzavotlar va dorivor o‘simliklarni quritishni chiqindisiz, ekologik toza va yuqori samarali texnologiyalarni ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha (2017 – 2019 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi past haroratli quritish usulini qo‘llash asosida tomat mevasini energiya tejamkor quritish jarayoni va qurilmasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishda qo‘llaniladigan ananaviy quritish jarayonlari va qurilmalarini tahlil qilish, quritish kinetikasini o‘rganish;

IQ-nur maydonining tomat mevasini quritish kinetikasiga ta’sir chegaralarini o‘rganish va tadqiq qilish;

tomat mevasini energiya tejamkor kombinatsion quritish usuliga asoslangan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bilan ta'minlangan eksperimental qurilmani ishlab chiqish;

tomat mevasini quritish jarayonining texnologik parametrlarini eksperimental tadqiq qilish algoritmlari va usullarini ishlab chiqish;

quritish jarayonini matematik modellashtirish va optimallashtirish;

fazalararo issiqlik va moddaalmashinuvni jadallashtirish orqali tomat mevasini past haroratda quritish jarayoni va apparatini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida ochiq maydonda, issiqxonalarda yetishtirilgan tomat mevasini quritish jarayoni va qurilmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti tomat mevasini past haroratli quritish tizimiga asoslangan quritish qurilmasi va impulsli ishlov berishning texnologik parametrlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda vizual kuzatish usullari, matematik statistika, instrumental o'lchash usullari, modellashtirish, eksperimental natijalarni qayta ishlash va umumlashtirish, gidromexanika va texnik termodinamikaning asosiy qonunlari va formulalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quritish jarayonidagi texnologik parametrlarni nazorat qilish va avtomatik boshqarish tizimiga asoslangan eksperimental sinov qurilmasi ishlab chiqilgan;

tomat mevasining ichki qatlamidagi suyuqlik tomchilarining molekulyar harakatini tezlashtirishda IQ - nurning $\lambda = 0,75 \div 1,1$ mkm to'lqin uzunligi diapazonida (+50-25+45-180+50-25+45) dastlabki impulsli ishlov berish rejimi, mahsulot yuzasidagi namlikning chiqishini jadallashtirishda $\lambda = 2,4 \div 2,8$ mkm to'lqin uzunligi diapazonida uzluksiz quritish rejimlari asoslangan;

teksturasi yumshoq eguluvchan strukturaga ega bo'lgan, tomat mevasini 10 % limon kislotasi eritmasida 20 daqiqa davomida ishlov berish, 10 daqiqa tindirish va past haroratli ($58 \div 62$ °C) issiqlik rejimi asosida quritish jarayoni eksperimental asoslangan;

dastlabki ishlov berish va quritish jarayonida mahsulot qatlamlari bo'yicha temperatura va namlik o'zgarishini ifodalovchi matematik model ishlab chiqilib, matematik modellashtirish hamda quritish jarayonining optimal rejimlari asosida energiyatejamkor quritish jarayoni va qurilmasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tomat mevasining ichki qatlamidagi suyuqlik tomchilarining molekulyar harakatini tezlashtirish hamda namlikning yuza tomon siljishini jadallashtirishga asoslangan IQ-nurning $\lambda = 0,75 \div 1,1$ mkm. to'lqin uzunligi diapazonida impulsli ishlov berish rejimida hamda $\lambda = 2,4 \div 2,8$ mkm. to'lqin uzunligi diapazonida uzluksiz rejimda ishlovchi quritish qurilmasi ishlab chiqilgan;

yumshoq, egiluvchan strukturaga ega bo'lgan quruq mahsulot olish uchun maqbul konsentratsiyali limon kislotasi muhitida tomat mevasiga dastlabki ishlov berish rejimi asoslangan;

quritish kamerasidagi mahsulotga berilayotgan issiq havo oqimi harakatini tagliklar aro teng taqsimlanishini ta'minlovchi mexanizmni qo'llash orqali

energiya xarajatlarini kamaytirishga erishilgan va mahsulot tarkibidan 1 kg namlikni chiqarib yuborish uchun - 0,56 kVt/soat, 1 kg tayyor quruq mahsulot uchun esa - 0,49 kVt/soat energiya sarflanishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tomat mevasini quritish jarayonining kinetik qonuniyatlarini asoslashda, texnologik jarayonga ta'sir etuvchi omillarning maqbul chegaraviy diapazonida avtomatik nazorat qilish va boshqarishni amalga oshirishda operatsion tizimlardan foydalanilganligi, quritish tizimining maqbul rejimlarini asoslashda, statistik va matematik hisoblash metodlaridan, tajriba, yarim sanoat qurilmalarida olingan natijalarning nazariy natijalarga mosligi, sanoat tadqiqotlarida foydalanilganligi, amalga oshirilgan tadqiqot ishining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yumshoq, egiluvchan strukturaga ega bo'lgan quruq mahsulot olish uchun tomat mevasini limon kislotasi eritmasida daslabki ishlov berish, mahsulot ichki qatlamidagi suyuqlik tomchilarining molekulyar harakatini hamda yuzadagi namlikning chiqishini jadallashtirishga asoslangan quritish usuli va qurilmasini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tomat mevasini quritishda dastlabki импульсли IQ-термик ishlov berish rejimini qo'llash hamda uzluksiz quritish rejimida IQ-nurning 2,4 ÷ 2,8 mkm. to'lqin uzunligi diapazonida hosil qilingan energiyadan samarali foydalanish natijasida quritish jarayonini 1,3 ÷ 1,5 marta jadallashtirishga, quritish qurilmasining energetik samaradorligini oshirishga, strukturasi yumshoq, egiluvchan quritilgan tomat mevasi tarkibidagi faol moddalarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tomat mahsulotini past haroratda quritish jarayoni va apparatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

past haroratda tomat mahsulotini quritishga mo'ljallangan yarim sanoat qurilma O'zbekiston-Qozog'iston "Gala River" qo'shma korxonasi joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 02-fevraldagi № 02-13/02-24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, takomillashtirilgan quritish qurilmasini qo'llash orqali uzoq muddatli saqlanish imkoniyatiga ega bo'lgan quritilgan tomat mahsulotini olishga erishilgan.

nurlanish spektrining maqbul to'lqin uzunliklari diapazonida tomat mahsulotini past haroratda quritishga mo'ljallangan qurilma "LIVADIYA-BUKHARA" MChJ da joriy etilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 02-fevraldagi № 02-13/02-24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mahsulot massasining birlik yuzadagi miqdori 9,5 ÷ 10,2 kg tashkil etganda sarflanayotgan energiya miqdori mahsulot tarkibidan 1 kg namlikni chiqarib yuborish uchun - 0,56 kVt/soatni, 1 kg tayyor quruq mahsulot uchun esa - 0,49 kVt/soatni tashkil etib natijada energiya samaradorligini 1,2 ÷ 1,5 marta oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop ettirish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur"ga 3 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti asoslangan, respublika fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy va respublika miqyosidagi tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning "**Tomat mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish tendensiyalari**" deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligi mevalarini quritish jarayoni va qurilmalarining xususiyatlari tanqidiy tahlil qilingan, yetishtirilayotgan tomat navlari bo'yicha tahlillar amalga oshirilib, tomat mevasining tuzilishi, tarkibi va termofizikaviy xossalari o'rganilgan.

Quritish jarayonida issiqlik - moddaalmashinish qonuniyatlari va matematik modellashtirishning nazariy asoslari, tomat mahsulotlarini quritish jarayonining texnologiyalari, quritish qurilmalarining konstruksiyalari va usullari tahlil qilingan. Mavjud quritish usullari va qurilmalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar shuningdek patent ma'lumotlari o'rganilib, mavjud quritish qurilmalari va usullarining kamchiligi va avfzalliklari ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning "**Tomat mevasini quritish jarayonini eksperimental tadqiq qilish**" deb nomlangan ikkinchi bobida quritish jarayonining tahlili asosida ekperiment rejasi ishlab chiqilgan, natijalarga ishlov berish usullari, tajriba qurilmasining tuzilishi, ishlash prinsipi keltirilgan. Har xil navdagi tomat mevasining namlik darajasini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlari amalga oshirilib, quritish jarayonining kinetik qonuniyatlari, tomat mevasining gigroskopik xossalari tajribalar asosida o'rganilgan.


Ishlab chiqilgan quritish uskunasi (1-rasm) korpus 1 dan iborat bo'lib, korpusning ichki yuzasi nur qaytargich 2 bilan qoplangan. Isituvchi agentning issiqligidan samarali foydalanish maqsadida quritish qurilmasi korpusining oralig'i izolyatsion material 3 bilan qoplangan quruq havo kirish potrubkasi 4 dan iborat.

Korpusning ichki qarama qarshi tomon yuzalarining balandligi bo'yicha bir biriga nisbatan oraliq masofasi 250 mm masofada o'rnatilgan paddon

harakatlanadigan moslamalar 5 payvandlangan. Ikki tomonlama o'rnatilgan har bir juft yo'naltirgichlar ustiga setkali paddonlar 6 joylashtirilgan. Tajriba qurilmasidagi paddonlar soni 6 ta. Mahsulotning kesilgan massasi bo'yicha har bir setkali paddonning sig'imi $7 \div 10$ kg tashkil etadi. O'rta o'lchamga ega, diametri $65 \div 75$ mm, massasi $94 \div 105$ gr bo'lgan tomat mevasining kesilgan shakli doira, qalinligi 4 mm bo'lgan namuna bo'yicha setkali paddonda tashkil etgan massasi 7 kg ni, yarim oy shaklida kesilgan, radiusi $33 \div 37$ mm, tashqi yuza qalinligi 8 mm ni tashkil etgan namuna bo'yicha setkali paddondagi massasi $9 \div 10$ kg ni tashkil etadi. Quritish qurilmasi ikki xil to'lqin uzunligi diapazonida ishlovchi nurlatgichlar bloki 7 bilan ta'minlangan. Quritish jarayoni davomida ajralib chiqayotgan havo oqimini sirkulyatsiyalanishini ta'minlash uchun shiber 8 va nam havoni chiqarib yuborish trubkasi 9 xizmat qiladi. Quritish qurilmasida texnologik jarayonni jumladan, mahsulot hamda havo oqimining kirish va chiqishdagi temperaturalarini, havoning nisbiy namligini avtomatik nazorat qilish uchun avtomatik boshqarish pulti 10 o'rnatilgan.

Ob'ekt sifatida olingan tomat mevalari tarkibidagi boshlang'ich namlik miqdori Sartorius MA35 tipidagi zamonaviy elektron nam o'lchagich orqali aniqlandi (2-rasm).

Tajribalarni o'tkazishda ochiq maydonda yetishtirilgan tomatning Volgograd va Toshkent navlari tanlanib, qurilma yordamida har bir navning boshlang'ich namligi bo'yicha ma'lumotlar olingan.




1-rasm. Tomat mevasini quritish jarayonining tajriba qurilmasi

1-korpus; 2-nur qaytargich; 3-izolyatsion qoplama; 4-havo kirish trubasi; 5-paddon harakatlanadigan moslama; 6- tomat mevasi joylashtirilgan setkali paddon; 7-nurlatgichlar bloki; 8-shiber; 9-nam havoni chiqarib yuborish trubasi; 10-boshqarish pulti.



2-rasm. Mahsulot namligini avtomatik ravishda o'lchovchi Sartorius MA 35 mar kali zamonaviy elektron qurilma

Tajriba sinov natijalari 130°C da 30 minut davomida amalga oshirilib, mahsulot namligining vaqt birligida o'zgarishining ulushlarda olingan natijalari 3-rasmda keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich massasi 5,0 gr. bo'lgan tomat mevasining namligi, tajriba jarayonining 27, 28, 29 hamda 30 daqiqalari oralig'ida bir xil o'zgarmas massaga ega bo'lib, 0,285 gramni tashkil etayapti. Mahsulot boshlang'ich namligi 94,3 %.



3 - rasm. Tomat mevasi massa sining vaqt birligida o'zgarish grafigi.

Quritish jarayoniga ta'sir etuvchi parametrlarni maqbul chegaraviy qiymatlarini aniqlash maqsadida ko'p faktorli $N=2^3$ eksperiment rejasi ishlab chiqildi. Eksperiment rejasiga muvofiq, ta'sir etuvchi har bir faktorning

maksimal, minimal, o'rta hamda o'zgarish oralig'i aniqlanib, z_i ning minimal sathini z_i^- deb, maksimal sathini z_i^+ , o'rta sathini z_i^0 deb belgilab olindi (1-jadval). Kodlashtirilgan o'zgaruvchi x_i ni z_i orqali ifodalaydigan bo'lsak tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$x_i = \frac{z_i - z_i^0}{\lambda_i} \quad (1)$$

bu yerda: λ_i - koeffitsientlarning o'zgarish intervali.

1-jadval

Faktorlarni kodlashtirish

Faktorlar	Maksimal sath, z_i^+	Minimal sath z_i^-	O'rta sath z_i^0	O'zlashtirish oralig'i λ_i	Kodlangan o'zgaruvchining natural qiymatga bog'liqligi
z_1	1,2	0,8	1,0	0,2	$x_1 = \frac{z_1 - 1,0}{0,2}$
z_2	8	4	6	2	$x_2 = \frac{z_2 - 6}{2}$
z_3	9	3	6	3	$x_3 = \frac{z_3 - 6}{3}$

2-jadval

Ta'sir etuvchi faktorlarning chegaraviy qiymatlari

No	Ko'rsatkichlar	$q, \frac{kVt}{m^3}$	X_1	δ, mm	X_2	$\sigma, kg/m^2$	X_3
1	Maksimal	1,2	+1	8	+1	9	+1
2	Minimal	0,8	-1	4	-1	3	-1
3	O'rta	1,0	0	6	0	6	0

Issiqlik oqimi zichligi - $q, \frac{kVt}{m^3}$ birlik yuzadagi mahsulot massasi - $\sigma, kg/m^2$;

mahsulot qalinligi - δ, mm .

Shunga ko‘ra, eksperiment natijalarining o‘rtacha qiymati:

$$\bar{Y}_j = \frac{1}{m} \sum_{i=1}^m Y_{ji} \quad j = \bar{1}, \dots, n \quad (2)$$

Taqsimot jadvaliga muvofiq kritik nuqtaning qiymati va erkinlik darajasi $n(m-1)$ berilgan muhimlik darajasi α ning sathi hamda kritik nuqtaning ikki tomonlama xududiy chegaraviy qiymatlari oralig‘i bo‘yicha, koeffitsientlarning o‘rtacha kvadratik og‘ishi quyidagi tenglama orqali aniqlandi.

$$S_{koef} = \sqrt{\frac{S_y^2}{n \cdot m}} \quad (3)$$

Takrorlanuvchi eksperiment natijalarining dispersligi S_y^2 o‘tkazilgan barcha eksperimentning xatoligini xarakterlaydi. Eksperimentni o‘tkazish bosqichida bir biriga yaqin, parallel hamda takrorlanuvchi natijalarning dispersligi:

$$S_y^2 = \frac{1}{n(m-1)} \sum_{j=1}^n \sum_{i=1}^m (y_{ji} - \bar{y}_j)^2 \quad S_i^2 = \frac{\sum_{u=1}^n (Y_{iu} - \bar{Y}_i)^2}{n-1} \quad (4)$$


bu yerda: n -o‘tkazilgan eksperimentlar soni; m -har bir eksperimentni o‘tkazish uchun amalga oshirilgan sinov (kuzatuv)lar soni.

Ekstremalga yaqin maydonning eng aniq tavsifini ifodalovchi ikkinchi darajali markaziy ortogonal kompozitsion reja qo‘llanilib, tomat mevasini quritish jarayonini tavsiflovchi regression tenglama olindi:

$$\hat{y} = 9,37 - 0,05x_1 - 1,65x_2 - 0,05x_3 - 1,175x_1x_2 - 0,625x_2x_3 + 1,025x_1x_3 - 0,65x_1x_2x_3 = 6,195 \quad (5)$$

Muhimlik sathi $\alpha = 0,05$ ga mos erkinlik darajasi $K_1 = n - r = 8 - 6 = 2$ va $K_2 = n(m-1) = 8 \cdot 2 = 16$ bo‘yicha me‘zonning qiymati Fisher taqsimotining kritik nuqtalari jadvaliga muvofiq $F_{jadv} = 7,81$ tashkil etadi. U holda $F_{his} = 5,92 < F_{jadv} = 7,81$ shartga muvofiq (5) tenglama adekvat hisoblanadi.

Tomat mevasining “Alamingo”, “Sulton”, “Moderna” va “Toshkent” navlari bo‘yicha quritish jarayoni eksperimental tahlil qilindi. Quritish kinetikasini tadqiq qilishda boshlang‘ich namligi $94 \div 95$ %, quruq modda miqdori $5,0 \div 5,3$ % bo‘lgan har xil qalinlikdagi ($\delta = 8$ mm, $\delta = 10$ mm, $\delta = 15$ mm) namunalar olinib vaqt birligida mahsulot namligining o‘zgarish grafiklari olindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich 7 minut davomida, ya‘ni mahsulotni isish davrida mahsulot tarkibidagi namlikning qisman o‘zgarishi kuzatildi. Qalinligi 8 mm bo‘lgan tomat mevasining namligi 94,3 foizdan 90,8 foizga, qalinligi 10




4 - rasm. Tomat mevalarini quritish egri chizig‘i.

mm bo'lgan namunaning namligi 91,3 foizga, qalinligi 15 mm bo'lgan namunaning namligi esa 91,8 foizga tushganligi aniqlandi (4-rasm).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, doimiy quritish tezligi davrida (I-davr) namlik miqdorining to'g'ri chiziq qoniniga muvofiq kamayish darajasining jadallashuvi kuzatilib, namlikning ushbu qonuniyat bo'yicha kamayish davri quritish tezligining birinchi kritik ω_{kr1}^c namlik nuqtasiga qadar davom etadi.

Quritishning kamayib borish tezligi, ya'ni ikkinchi (II-davr) kritik tezlik ω_{kr2}^c davrida olingan egri chiziqlar ma'lum bir xarakterda ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, davrning so'ngida mahsulot namligi assimtotik ravishda muvozonat namlik chegarasiga yaqinlashishi kuzatildi.


Yarim oy shaklida kesilgan, asosining qalinligi $\delta = 8$ mm bo'lgan tomat mevasining qurish vaqti 270 minutni, qalinligi $\delta = 10$ mm bo'lgan namunaning qurish vaqti 300 minutni, qalinligi $\delta = 15$ mm namunaning qurish vaqti 360 minutni tashkil etdi. Quritish jarayoni tezligining egri chizig'i bo'yicha o'tkazilgan tahlillar (5-rasm) shuni ko'rsatadiki, doimiy quritish tezligi (I) davrida ω_{kr1}^c , qalinligi 8 mm bo'lgan tomat mevasi tarkibidan minutiga 0,35 %, 10 mm bo'lgan tomat mevasi tarkibidan 0,28 %, qalinligi 15 mm bo'lgan tomat mevasi tarkibidan esa $0,25 \div 0,26$ %, namlik ajralib chiqayapti. Quritish tezligining kamayib borish (II) davrida qalinligi 8 mm bo'lgan tomat mevasining muvozonat namligi 9 %, qalinligi 10 mm bo'lgan namunaning muvozonat namligi 11 %, shuningdek 15 mm bo'lgan namunaning muvozonat namligi $9 \div 11$ % tashkil etayapti. Ushbu II-davrda mahsulot tarkibidan namlikning bug'lanishi o'ta sekinlashib, mahsulot temperaturasi qisman ko'tarilishi, mahsulotning namligi muvozonat holatiga ω_M yetgach namlikning bug'lanishi nolga tenglashishi kuzatildi.



5-rasm. Quritish jarayoni tezligining egri chizig'i namunaning kesilgan shakli - yarim oy; asosining qalinligi: 1-8 mm; 2-10 mm; 3-15 mm


Shuningdek doira shaklda kesilgan, qalinligi $4 \div 6$ mm bo'lgan tomat mevasini quritish tezligining egri chizig'iga qaraydigan

bo'lsak (I) davrida qalinligi 4 mm bo'lgan namuna tarkibidan 0,61 %, 6 mm namuna tarkibidan 0,42 % namlik ajralib chiqib quritish vaqti mahsulot qatlamlari bo'yicha 230, 245 minutni (6-rasm), ammo mahsulot temperaturasi oshishi kuzatilib, qatlamlar bo'yicha mahsulotning o'rtacha temperaturasi $79 \div 84$ °C tashkil etayapti (7-rasm).



6-pacm. Quritish jarayoni tezligining egri chizig'i doira shaklda kesilgan tomat namunasi, qalinligi:

1-6 mm; 2-4mm




7-rasm. Mahsulot qatlami bo'yicha temperatura o'zgarishi

Olingan eksperiment natijalarini qayta ishlash matematik statistika usullari yordamida amalga oshirilib, havo nisbiy namligining turli chegaraviy qiymatlarida tomat mevasining gigroskopik xususiyati aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, 8 xil namuna bo'yicha quritilgan tomat mevasi havo nisbiy namligining 50 ÷ 60 % chegarasida, 25 ÷ 28 °C uy temperaturasida bir oy muddatda saqlanganda boshlang'ich va oxirgi gigroskopik namlik darajasi deyarli o'zgarmadi (ma'lumotlar dissertatsiyada o'z aksini topgan).

Dissertatsiyaning "Tomat mevasini quritish jarayonini matematik modellashtirishning nazariy asoslari" deb nomlangan uchinchi bobida quritish jarayonida issiqlik – moddaalmashinishning asosiy qonuniyatlarini, ta'sir etuvchi parametrlarning maqbul chegaralarini aniqlashga qaratilgan nazariy tadqiqotlar o'z ifodasini topgan. Quritish jarayonida mahsulot namligi va temperaturasining o'zgarishini, mahsulot tarkibidan bug'lanayotgan namlikni, isituvchi agent orqali hosil qilinayotgan energiya miqdorlarini tavsiflovchi matematik ifodalar keltirilgan.

Tomat mevasi tarkibidagi namlik va temperaturaning o'zgarishi, isituvchi agent oqimining yo'nalish traektoriyasi hamda solishtirma energiya sarflarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan eksperimental va nazariy tadqiqotlar asosida bir qator natijalar olindi. Taklif etilgan quritish apparatining takomillashtirilgan modeli, isituvchi agentning zigzak shakldagi harakat yo'nalishini ta'minlovchi mexanizm bilan ta'minlangan. Tagliklarning asosga o'rnatilgan tomoniga yarim sferik shaklidagi o'yiqchalar hosil qilingan. Bu o'z navbatida isituvchi agent (havo) ning tagliklar aro bir me'yorda tarqalishini, quritilayotgan mahsulot tarkibidan namlikning bir me'yorda ajralib chiqishini ta'minlaydi. Jumladan, quritish kamerasining 1 va 3 setkali tagliklarida joylashtirilgan mahsulot namligining vaqt birligida o'zgarishi hamda tagliklar aro isituvchi (havo) ning oqim tezliklarini xarakterlovchi natijalar 8-rasmda keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, quritish jarayonining dastlabki 60 minut davomida ostki 1-taglikdagi mahsulotning namligi 28,5 % ga, 2 taglikdagi mahsulot namligi 27,6 % ga 3-taglikdagi mahsulotning namligi 26,2 % ga o'zgarishi kuzatildi. 90 minut davomida esa 1,2 va 3 tagliklardagi mahsulot namligining o'zgarishi deyarli bir xil bo'lib o'rtacha 27,3 foizni tashkil etdi.



8-rasm. Vaqt birligida tagliklardagi mahsulot tarkibidan ajralib chiqayotgan namlikning miqdori.


Shuningdek, quritish apparatidagi setkali tagliklarning asosga oʻrnatilgan tomonlarida yarim sferik

oʻyiqchalarning mavjudligi, tagliklar aro mahsulot tarkibidan ajralib chiqayotgan nam havoning soʻrilishini taʼminlab uning apparatdan chiqish oqimini jadallashtiradi. Yaʼni, isituvchi agent (havo) oqimining boshlangʻich va oxirgi nuqtalardagi tezliklar farqi deyarli nolga yaqinlashib, u $0,25 \div 0,3$ m/s tashkil etdi.

Quritish jarayoni davomida mahsulot temperaturasining oʻzgarishi:

$$t_m = G_{mb} \cdot C_{mb} \cdot t_{mb} + G_{xb} \cdot C_{xb} \cdot t_{xb} + q / (G_{mo} \cdot C_{mo} \cdot G_{xo} + W_{um}) \quad (6)$$

Ushbu tenglamaning MATLAB dasturiy paketidagi hisoblash bloki (9-rasm):




9-rasm. Mahsulot oʻrtacha temperaturasining hisoblash bloki.


Tomat mevasining muvozonat namligi uning isish vaqt doimiysi, temperaturaga hamda quritish tezligi davrlari boʻyicha hosil qilingan issiqlik miqdoriga bogʻliq. Shunga koʻra matematik modellashtirish asosida quritish jarayoni tezligining davrlari boʻyicha quritilayotgan tomat mevasining isish vaqt doimiylari va mahsulotning butun hajmi boʻyicha temperatura oʻzgarishlari aniqlandi. Yarim oy shaklida kesilgan, asos qalinligi 8 mm boʻlgan namunaning dastlabki davrdagi isish jarayonining vaqt doimiysi $10 \div 14$ minutni, doimiy quritish tezligi davrdagi isish jarayonining vaqt doimiysi $114 \div 120$ minutni, quritish tezligining kamayib borish davrida esa 136 minutni tashkil etdi. Mahsulotning muvozonat namlik chegarasi uchun oʻrtacha isish vaqt doimiysi $260 \div 270$ minut. Quritish jarayoni davomida quritilgan 1 kg mahsulot uchun solishtirma energiya miqdori, mahsulot qatlamlari boʻyicha temperatura oʻzgarishlari yuzasidan natijalar olindi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar hamda tegishli tenglamalar asosida hisoblangan natijalar shuni koʻrsatadiki, energiyaning sarfi quritish qurilmasiga mahsulotning yuklanganlik darajasiga, mahsulot temperaturasining oʻzgarishi esa isituvchi element (keramik nurlatgich) ning

mahsulotga nisbatan joylashuv balandligi va quritish kamerasiga berilayotgan havoning tezligiga bog‘liq.

Grafik (10-rasm) dan ko‘rinib turibdiki, mahsulotga nisbatan 180 ÷ 200 mm balanlikda va bir biriga nisbatan 100 ÷ 120 mm oraliq masofada joylashtirilgan, to‘lqin uzunligi 2,4 ÷ 2,8 mkm tashkil etgan keramik nurlatgichlar yordamida amalga oshirilgan quritish jarayonida mahsulot yuzasidagi temperaturaning o‘zgarishi qisman qabariq shaklga ega bo‘ladi. Mahsulot egallagan setkali taglikning markaziy zonalaridagi temperatura 57 ÷ 58,8 °C ni, simmetriya o‘qiga nisbatan chap va o‘ng tomon maydonlarda sezilarli darajada temperaturaning pasayishi kuzatildi. Nurlatgichlarning mahsulotga nisbatan o‘rnatilgan balanligi 50, 100, 150 mm bo‘lganda butun sikl davomida mahsulotning markaziy zonadagi temperaturasi 68 °C ÷ 78 °C oraliqda o‘zgarishi kuzatildi.



10-rasm. Tomat mevasini quritish jarayonidagi temperatura maydoni



11-rasm. Quritish jarayoni sikli bo‘yicha mahsulot temperaturasi nurlatgich bloklarining joylashuv masofasiga bog‘liqlik grafiqi.

$$t = 54,3348 + 21,33 \cdot b - 15,72 \cdot b^2 - 0,69 \cdot a^2$$

Ammo mahsulotga nisbatan nurlatgich o‘rnatilgan masofa balandligi 180 ÷ 220 mm bo‘lganda mahsulotning ostki va yuzadagi temperaturalar farqi 7°C, o‘zgarish oralig‘i 55°C ÷ 62°C tashkil etayapti (11-rasm).

Tomat mevasini quritish jarayonining matematik modeli, harorat va namlikning tarqalish tezligi bo‘yicha:

- mahsulot yuzasida harorat va namlikning tarqalish tezligi:

$$\frac{dt_{yuza}}{d\tau} = \frac{\left[q + \alpha \cdot F_s \cdot (t_g - t_1) - \frac{\lambda \cdot F_s}{\Delta h} \cdot (t_1 - t_2) \right]}{m \cdot c}$$

$$\frac{dX_{yuza}}{d\tau} = \frac{\left(-\beta \cdot F_s \cdot (X_k - X_p) + KDt \cdot F_s / dh \cdot (X_1 - X_{oxirgi}) \right)}{m}; \quad (7)$$

- mahsulotning dastlabki (birinchi) qatlamida harorat va namlikning tarqalish tezligi:

$$\frac{dt_1}{d\tau} = \frac{\left[q_1 + \alpha \cdot F_s \cdot (t_g - t_1) - \frac{\lambda \cdot F_s}{\Delta h} \cdot (t_1 - t_2) \right]}{m \cdot c} - G \cdot it$$

$$\frac{dX_1}{d\tau} = \frac{(-\beta \cdot F_s \cdot (X_1 - X_p) + KDt \cdot (X_2 - X_1))}{m} \cdot (1 - X_1)^2; \quad (8)$$

- mahsulotning o'rtta $i+1$ qatlamlarida harorat va namlikning tarqalish tezligi:

$$\frac{dt_i}{d\tau} = \frac{\left[q_i - \frac{\lambda \cdot F_s}{dh} \cdot (t_{i-1} - 2t_i + t_{i+1}) \right]}{m \cdot c}$$


$$\frac{dX_i}{d\tau} = \frac{(KDt \cdot F_s / dh \cdot (X_{i-1} - 2X_i + X_{i+1}))}{m}; \quad (9)$$

- mahsulotning ostki qatlamida harorat va namlikning tarqalish tezligi:

$$\frac{dt_5}{d\tau} = \frac{\left[q_5 - \frac{\lambda \cdot F_s}{dh} \cdot (t_4 - t_5) - \alpha_n \cdot F_n (t_5 - t_n) \right]}{m \cdot c}$$

$$\frac{dX_5}{d\tau} = \frac{KDt \cdot (X_{i+1} - X_5)}{m} \cdot (1 - X_5)^2. \quad (10)$$


Quritish jarayonini matematik modellashtirish asosida olingan differensial tenglamalarni MATLAB dasturida qayta ishlash orqali tomat mevasi qatlamlari bo'yicha dastlabki ishlov berish (impulsi) rejimida va uzluksiz quritish tizimida namlik va temperatura o'zgarishlarini fodalovchi grafiklar olindi (12-rasm).




12-rasm. Tomat mevasiga impulsi ishlov berish bosqichida namlik (1), temperatura (2) va issiqlik oqimi zichligi (3) ning vaqt birligida o'zgarish grafigi

Grafik (12-rasm) dan ko'rinib turibdiki, mahsulot namligi, impulsi ishlov berish rejimining to'la sikli (420 sek.) davomida mahsulot tarkibidan $3 \div 3,5$ % atrofida namlik ajralib chiqayapti (1), mahsulot temperaturasi esa impulsi ishlov berish rejimining dastlabki nurlanish bosqichi (50sek.) da 43°C ni, ikkinchi nurlanish bosqichining (45 sek.) da 51°C ni, nurlanishning uchinchi (50 sek.) hamda to'rtinchi (45 sek) bosqichlarida $62 \div 63^{\circ}\text{C}$ tashkil etayapti. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, impulsi ishlov berish bosqichida past haroratli rejimni ta'minlash uchun nurlanishli va nurlanishsiz ishlov berishning davomiyligi asosiy omil hisoblanadi. Shuningdek, uzluksiz quritish tizimida mahsulot qatlamlari bo'yicha temperatura va namlik o'zgarishini ifodalovchi egri chiziqlar qurilib, olingan natijalar (13 va 14-rasmlar) da keltirilgan.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, qalinligi 10 mm, yarim oy shaklida kesilgan tomat mevasining qatlamlari bo'yicha namlikning o'zgarishi, quritish jarayonining I-davrida qatlamlar aro ma'lum darajada farq qilsada, quritishning II-davrida xar bir qatlamdan namlikning bir me'yorda ajralib chiqishi yuzaga kelib, mahsulotning bir me'yorda qurishini kuzatish mumkin.



13-rasm. Mahsulot qatlamlari bo'yicha namlikning vaqt birligida o'zgarish egri chizig'i




14-rasm. Mahsulot qatlamlari bo'yicha temperaturaning vaqt birligida o'zgarish egri chizig'i

Mahsulot qatlamlari bo'yicha temperaturaning o'zgarishi bo'yicha olingan natijalarni izohlaydigan bo'lsak, quritish jarayonining 120 ÷ 130 minutlarida qatlamlar bo'yicha temperatura 39 ÷ 45⁰C ni, quritish jarayonining so'ngi 240 ÷ 270 minutlarida esa 55 ÷ 62⁰C tashkil etayapti. Demak, hosil qilingan ushbu temperatura oraliqlarida tomat mevasini quritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Quritish tizimidagi issiqlik va moddaalmashinuv jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, qattiq faza tarkibida qatlamlar bo'yicha namlik va temperaturaning siljishi hamda qattiq faza tomonidan nurlangan energiyaning yutilishi natijasida fazalar aro almashinuv yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning **“Tomat mevasini quritish jarayonini optimallashtirish va texnologik jarayonning iqtisodiy ko'rsatkichi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida quritilayotgan har bir kg mahsulot uchun optimal energiya miqdorlari, texnologik jarayonni optimallashtirish vazifalari, optimallashtirish masalalarini yechish bosqichlari va tomat mevasini quritish tizimining iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Tomat mevasini past haroratli rejimda quritishda mahsulot tarkibidagi 1kg namlikni chiqarib yuborish hamda 1 kg quruq mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya miqdori asosiy omillardan biri hisoblanadi. Energiya sarfi, quritish qurilmasidagi setkali tagliklarning yuza birligini tashkil etgan mahsulot massasiga bog'liq. Shunga ko'ra, turli massa birliklari bo'yicha energiya xarajatlari aniqlanib, birlik yuzani tashkil etgan mahsulot massasining turli qiymatlari kesimida sarflanayotgan energiya miqdorini xarakterlovchi natijalar olindi (15-



rasm). Grafikga muvofiq, 2,6 kg mahsulot tarkibidan 1 kg namlikni chiqarib yuborish uchun 1,5 ÷ 1,7 kVt soat, 1 kg tayyor quruq mahsulot uchun esa 1,2 ÷ 1,3 kVt soat energiya sarflanayapti.

15-rasm. Energiya sarfining quritish qurilmasiga yuklangan mahsulot massasiga bog'liqlik egri chizig'i

Grafikdan ma'lumki, birlik yuzani tashkil etayotgan mahsulot massasining ma'lum bir chegaraviy qiymati oralig'ida energiya sarfi kamaysa, ma'lum bir chegarada oshishi kuzatildi. Masalan, mahsulot massasining birlik yuzadagi miqdori $9,5 \div 10,2 \text{ kg/m}^2$ bo'lgan mahsulot tarkibidan 1 kg namlikni chiqarib yuborish uchun $-0,56 \text{ kVt/soat}$, 1 kg tayyor quruq mahsulot uchun $-0,49 \text{ kVt/soat}$ energiya sarflanishi kuzatildi. Taklif etilayotgan quritish qurilmasida maqbul qiymat $9,5 \div 10,2 \text{ kg/m}^2$ tashkil etadi (15-rasm).

Tomat mevasini quritish jarayonini optimallashtirish vazifasi, bu texnologik xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqot ishida belgilangan optimallashtirish vazifasi - qurilmaning ish unumdorligi hamda quritilgan mahsulot sifati bo'yicha qo'yilgan shartlarning bajarilishiga qaratilgan. Tomat mevasini past haroratli rejimda quritish jarayonining muhim faktorlari quyidagilarni tashkil etadi: birlik yuzaga tushayotgan issiqlik oqimi zichligi $E_n = 1,2 \div 1,5 \text{ kVt/m}^2$; nurlangan energiya ta'sirining davomiyligi $\tau_{o\ddot{a}n} = 190$ sek; nurlanishsiz davrning davomiyligi $\tau_{omn} = 230$ sek; mahsulot qalinligi δ , MM; quritish agentining tezligi $g_B = 1,9 \div 2,1 \text{ m/s}$. Tadqiqotlar asosida mahsulot sifatiga ($C \rightarrow \max$), quritish jarayoni davomida mahsulot temperaturasiga ($T \rightarrow \min$), mahsulot tarkibidagi namlik gradientiga $\frac{dw}{dh} \rightarrow \min$ diffuziya koeffitsientining

$D = f(W_o, W_n)$ bog'liqligi o'rganildi. Diffuziya koeffitsientining o'zgarishiga ta'sir etuvchi muhim faktorlarning maqbul chegaraviy qiymatlarini tavsiflovchi uch bosqichli optimallashtirishning ierarxik strukturasi ishlab chiqildi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, meva va sabzavotlarni $74 \div 76^{\circ}\text{C}$ yuqori haroratda quritish tizimini tashkil etilishi mahsulot tarkibidagi biologik faol moddalarning o'zgarishiga olib kelib, quritilgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quritilayotgan tomat mevasining eng yuqori sifat ko'rsatkichi $40 \div 45^{\circ}\text{C}$ oralig'ida kuzatildi. Biroq, iqtisodiy nuqtai nazardan sarf xarajatlar (mahsulot tannarxi, mahsulot tarkibidagi namlikni bug'latish uchun sarflangan energiya xarajatlari, jarayonning davomiyligi) ni inobatga olib ushbu dissertatsiya ishida tomat mevasini quritishdagi temperaturaning chegaraviy qiymati $58 \div 62^{\circ}\text{C}$ tashkil etishi asoslandi. O'zbekiston-Qozog'iston "Gala River" qo'shma korxonasi hamda LIVADIYA-BUKHARA" MChJ ning ishlab chiqarish sharoitida har xil qalinlikda kesilgan tomat mevasini quritish bo'yicha tajriba-sanoat sinovlari o'tkazildi.

Tajriba sinov qurilmasini ishlab chiqarishga tadbiiq etish samaradorligini oshirish uchun quritish jarayonining maqbul rejimi tanlanib, strukturasi yumshoq, yuqori elastiklik xossasiga ega bo'lgan mahsulot sifatini saqlab qolishga qaratilgan energiya berishning noananaviy usuli tadbiiq etildi.

XULOSA

1. Strukturasi har xil bo'lgan turli navli tomat mevasini quritish jarayonini amalga oshirish, texnologik parametrlarni avtomatik nazorat va boshqarish tizimi bilan jixozlangan tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan;

2. Mahsulotning ichki qatlamidagi suyuqlik tomchilarining molekulyar harakatini va uni yuza tomoni siljishini jadallashtiruvchi $0,75 \div 1,1$ mkm to'lqin uzunligida impulsli rejim asosida ishlov berishga mo'ljallangan IQ nurlatgichlar bloki, suyuqlikni yutish qobiliyati yuqori bo'lgan $2,4 \div 2,8$ mkm to'lqin uzunligida ishlovchi keramik nurlatgichlarni uzluksiz ishlash prinsipiga asoslangan quritish usuli taklif etilgan.

3. Quritilgan tomat mevasi tarkibidagi boshlang'ich va muvozonat namliklar miqdori Sartorius MA35 tipidagi zamonaviy elektron nam o'lchagich asbobi asosida o'rganilib, mag'ziga nisbatan urug'larining miqdori $3,3 \div 4,1$ %, tashkil etgan tomat mevasining absolyut namligi absolyut quruq moddaga nisbatan $1654 \div 1860$ % ni, nisbiy namligi $94,3 \div 94,9$ % ni, quruq moddaning miqdori $5,1 \div 5,7$ % ni tashkil etishi aniqlangan.

4. Ko'p faktorli eksperiment rejasi asosida ta'sir etuvchi parametrlarning chegaraviy qiymatlari aniqlanib, tomat mevasini quritish va quritish jarayoni tezligini xarakterlovchi egri chiziqlar qurilgan.

5. Styudent kriteriyasiga muvofiq muhimlik (znachimiy) hamda muhim bo'lmagan (neznachimiy) koeffitsientlar aniqlanib, regression model ishlab chiqilgan.

6. Eksperimental va nazariy natijalarning adekvatligi, muhimlik sathiga mos erkinlik darajasi bo'yicha me'zonning qiymati Fisher taqsimotining kritik nuqtalari jadvaliga muvofiqligi $F_{jadv} = 7,81$, $F_{hisob} = 5,92 < F_{jadv} = 7,81$ asoslangan.

7. Mahsulot qatlamlari bo'yicha temperatura va namlik o'zgarishining matematik modeli ishlab chiqilgan.

8. Tavsiya etilgan quritish usulida, tarkibidan 1 kg namlikni chiqarib yuborish uchun - 0,56 kVt/soat, 1 kg tayyor quruq mahsulot uchun - 0,49 kVt/soat energiya sarflanishi asoslangan;

9. O'zbekiston-Qozog'iston "Gala River" qo'shma korxonasi hamda "LIVADIYA-BUKHARA" MChJ ning ishlab chiqarish sharoitida tajriba-sanoat sinovlari o'tkazilgan. Sinov natijalariga ko'ra tomat mevasini quritish uchun taklif etilayotgan kichik ish unumdorlikka ega quritish qurilmasi energiya xarajati bo'yicha yuqori samaradorlikka ega ekanligi e'tirof etilgan.

Joriy etish samaradorligiga - minimal energiya sarfini ta'minlash, quritish tizimining optimal rejimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, quritilgan mahsulot tarkibidagi biologik faol moddalarni saqlab qolish asos bo'lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО –
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО – ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

РАСУЛОВ ШУХРАТ ХУЖАКУЛОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА И АППАРАТА СУШКИ
ТОМАТНЫХ ПРОДУКТОВ ПРИ НИЗКИХ ТЕМПЕРАТУРАХ**

**02.00.16 - Процессы и аппараты химических технологий и пищевых
производств**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Бухара - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.3.PhD/T3040.

Диссертационная работа выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyounet» по адресу (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Джураев Хайрулло Файзиевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Нурмухамедов Хабибулла Сагдуллаевич
доктор технических наук, профессор

Сафаров Жасур Эсиргапович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

**Навийский государственный
горно-технологический университет**

Защита диссертации состоится 23 мая 2025 г. в 09⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/28.02.2022.Т.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте. (Адрес: 100118, г. Бухара, ул. Каюма Мургазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84, факс: (+99865) 223-78-84, e-mail: bmti_@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института (зарегистрировано за номером 350). (Адрес: 100118, г. Бухара, ул. Каюма Мургазаева, 15. Тел.: (+99865) 223-78-84)

Автореферат диссертации разослан 12 мая 2025 года.

(реестр протокола № 1 от 24 марта 2025 года).



С.Ф. Фозилов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

А.Т. Олтиев

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, доцент

И.Б. Исабаев

Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Введение (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всём мире быстрыми темпами развивается создание новой техники и технологий, направленных на получение и переработку высококачественной сушеной готовой продукции из фруктов и овощей, выращиваемых в сельском хозяйстве, а также производство готовой продукции. В связи с этим имеет важное значение систематическая организация производства разных видов томатов в открытом грунте и теплицах, создание ресурсосберегающих технику технологии для качественной сушки томатов.

В мире проводятся научные исследования, направленные на создание новой техники и технологий с высокой энергоэффективностью за счет производства готовой продукции путем переработки томатов, модернизации оборудования для сушки томатов, совершенствования сушильных устройств. Соответственно, особое внимание уделяется научно-исследовательской работе, направленной на повышение энергоэффективности технологий применяемых во многих отраслях производства, освоение производства новых видов продукции, увеличение сроков хранения и биологической ценности готовой продукции при обработке за счет использования современных методов.

